

UDK: 502.211:591.5

## BUXORO IXTISOSLASHTIRILGAN “JAYRON” PITOMNIGINING TARIXI VA BUGUNGI HOLATI

**Kamolov Jaxongir Ilxomovich**

*Buxoro davlat texnika universiteti “Yer resurslaridan foydalanish va davlat kadastrlari” kafedrası tayanch doktoranti, Email: kamolov.j.i@gmail.com*

**Toshev Po‘lat Yo‘ldoshevich**

*Buxoro ixtisoslashtirilgan “Jayron” pitomnigi kichik ilmiy xodimi*

**Annotatsiya:** Maqolada Buxoro ixtisoslashtirilgan “Jayron” pitomnigining tashkil etilish tarixi, huquqiy shakllanish bosqichlari hamda bugungi kundagi funksional holati atroflicha yoritilgan. Pitomnik hududining geografik joylashuvi, yer maydonlarining tarkibi, muhofaza etiladigan va ochiq zonalarga bo‘linishi, ularning ekologik hamda biogeografik ahamiyati tavsiflangan. Maqolada 1-hudud va 2-hududning funksional vazifalari, yerdan foydalanish huquqining davlat reyestrlarida qayd etilishi, kadastr hujjatlari bilan mustahkamlanishi hamda noyob hayvon turlarini, xususan jayron populyatsiyasini saqlash va ko‘paytirishdagi roli asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Jayron pitomnigi, noyob hayvon turlari, biologik xilma-xillik, maxsus muhofaza etiladigan hududlar, jayron populyatsiyasi, ekologik barqarorlik.

Buxoro viloyat Ijroiya qo‘mitasi, O‘zSSR Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, O‘zSSR Fanlar akademiyasi bilan kelishgan holda, O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1976-yil 15-sentabrdagi 831-sonli qaroriga asosan “Buxoro jayronlari ko‘paytirishga ixtisoslashgan maxsus pitomnigi” nomi bilan tashkil etilgan. 1989-yilda “Jayron” Ekologik markazi sifatida qayta tashkil qilingan. 2017-yil 21-apreldagi PQ-2915-sonli qarorga asosan Ekomarkaz nomi “Buxoro ixtisoslashtirilgan “Jayron” pitomnigi” sifatida o‘zgartirilgan.

“Jayron” pitomnigining tashkil etilishidan ko‘zlangan asosiy maqsad O‘rta Osiyo hududida uchraydigan noyob hamda yo‘qolib ketish xavfi ostida bo‘lgan cho‘l hayvonlari turlarini saqlab qolish, ularni ko‘paytirish va tabiiy muhitga qayta moslashtirishdan iboratdir. XX asrning 1960-yillariga kelib, ayrim hayvon turlarining soni keskin kamayib, butunlay yo‘qolib ketish xavfi yuzaga kelgan bo‘lib, bu holat asosan insonning xo‘jalik va iqtisodiy faoliyati bilan bevosita bog‘liq edi.

Kamyob va yo‘qolib borayotgan hayvon turlarini muhofaza qilish zarurati xalqaro miqyosda ham e‘tirof etilib, ushbu ehtiyoj Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqining tashkil etilishiga turtki bo‘ldi. Mazkur tashkilot tomonidan Jahon tabiatni muhofaza qilish strategiyasi ishlab chiqildi hamda noyob hayvon turlarini saqlashning bir necha yo‘nalishlari taklif etildi. Ushbu yo‘nalishlar orasida sun‘iy sharoitda ko‘paytirish eng samarali usullardan biri sifatida belgilandi.


1970-yillardan boshlab ko‘plab mamlakatlarda ekologik yo‘nalishdagi yangi qonun hujjatlari qabul qilinib, milliy Qizil kitoblar shakllantirildi hamda hayvonlarni parvarishlash va ko‘paytirishga mo‘ljallangan maxsus pitomniklar tashkil etila boshlandi. Shu davrda sobiq

Ittifoq hududida, jumladan Turkmaniston, Ozarbayjon, Gruziya, Tojikiston va O‘zbekistonda jayronlarni ko‘paytirishga ixtisoslashgan jami yettita pitomnik barpo etildi. O‘zbekistonda esa Buxoro ixtisoslashtirilgan “Jayron” pitomnigi tashkil etildi.

Dastlab ushbu muassasa “Buxoro jayronlarni ko‘paytirishga ixtisoslashgan maxsus pitomnik” nomi bilan faoliyat yuritib, uning asosiy vazifalari jayron populyatsiyasini tiklash, turning biologik xususiyatlarini o‘rganish hamda populyatsiya resurslaridan oqilona foydalanishni ta‘minlashdan iborat bo‘lgan. Keyinchalik erishilgan ijobiy natijalar asosida pitomnik faoliyati kengaytirilib, unda turkman quloni, sayg‘oq, buxoro bug‘usi, Prjeval otlari va buxoro tog‘ qo‘ylari kabi boshqa noyob hayvon turlarini ko‘paytirish ishlari yo‘lga qo‘yildi. Hozirgi kunda Buxoro ixtisoslashtirilgan “Jayron” pitomnigi doimiy rivojlanib, zamon talablariga mos ravishda o‘z faoliyatini takomillashtirib bormoqda.

Buxoro ixtisoslashtirilgan “Jayron” pitomnigi Qizilqum cho‘lining janubi-g‘arbiy qismida, Qarnobcho‘l massivida joylashgan. Mazkur hudud Buxoro shahridan taxminan 42 kilometr masofada bo‘lib, Kogon va Qorovulbozor shaharlari oralig‘idan o‘tuvchi A–380 avtomobil yo‘li bo‘ylab joylashgan. Pitomnik hududining geografik koordinatalari 39°35'–39°40' shimoliy kenglik hamda 64°31'–64°43' sharqiy uzunlik oralig‘ini tashkil etadi. Ma‘muriy jihatdan ushbu hudud Buxoro viloyati Buxoro tumani tarkibiga kiradi.

Buxoro ixtisoslashtirilgan “Jayron” pitomnigi hududi ikki asosiy qismdan iborat bo‘lib, ularning umumiy maydoni 16 522 gektarga teng. Jumladan, birinchi qism 5 145 gektar maydonni egallagan qat‘iy muhofaza etiladigan hududdan iborat bo‘lsa, ikkinchi qism 11 377 gektar maydonni qamrab olgan ochiq hudud sifatida ajratilgan (2.1.1-rasm).



2.1.1-rasm. Buxoro ixtisoslashtirilgan “Jayron” pitomnigi sxematik xaritasi

“Jayron” pitomnigi tarkibiga kiruvchi 1-hudud O‘zbekiston Respublikasida noyob va yo‘qolib ketish xavfi ostida bo‘lgan hayvon turlarini muhofaza qilish hamda ularni ko‘paytirishga yo‘naltirilgan maxsus muhofaza etiladigan yerlar toifasiga mansubdir. Ushbu hudud ekologik va biogeografik jihatdan muhim ahamiyatga ega bo‘lib, jayron populyatsiyasini saqlash uchun ajratilgan hamda ularning tabiiy yashash muhitini tiklash va himoyalash vazifasini bajaradi. Hududning umumiy maydoni 5 145 gektarni tashkil etadi. Mazkur maydon atrofi balandligi 2 metr bo‘lgan simli to‘siq bilan o‘ralgan bo‘lib, ushbu himoya infratuzilmasi hayvonlarning pitomnik hududidan tashqariga chiqib ketishini oldini olish, shuningdek, inson faoliyati va boshqa tashqi xavf omillarining hududga kirib kelishini cheklash maqsadida barpo etilgan. O‘rnatilgan to‘siqlar biologik xavfsizlikni ta‘minlash bilan bir qatorda, jayronlar populyatsiyasini monitoring qilish va ularni boshqarish jarayonlarini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi.

Mazkur hududdan foydalanish huquqi 1979-yil 25-dekabrda rasmiylashtirilgan BN000396-sonli davlat dalolatnomasi asosida belgilangan bo‘lib, ushbu hujjat pitomnik yerlaridan foydalanishning huquqiy asoslarini mustahkamlaydi hamda mazkur maydonning muhofaza etiladigan tabiiy hudud sifatidagi maqomini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, hududga egalik qilish va undan foydalanish masalalari amaldagi qonunchilik talablariga to‘liq muvofiq tarzda tartibga solingan. Shuningdek, ushbu yer maydoni O‘zbekiston Respublikasi Davlat yerdan foydalanish huquqi bo‘yicha 20-sonli Davlat reyestriga kiritilgan bo‘lib, bu holat hududning huquqiy maqomini yanada mustahkamlash, yerdan foydalanish tartibi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish va mazkur yerlarning rasmiy hisobini yuritishni ta‘minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasining noyob tabiiy majmualarini muhofaza qilishda strategik ahamiyatga ega bo‘lgan “Jayron” pitomnigi tarkibida 2-hudud muhim funksional zona sifatida ajratilgan. Ushbu hududning asosiy vazifasi jayronlar populyatsiyasini ko‘paytirish, ularni tabiiy yashash muhitida saqlab qolish hamda hududning ekologik va biologik barqarorligini ta‘minlashdan iboratdir. Mazkur hududning umumiy yer maydoni 11 377 gektarni tashkil etadi. Ushbu maydon bo‘yicha yerdan foydalanish huquqi 1991-yil 26-iyun va 1993-yil 24-avgust sanalarida B000396-sonli davlat dalolatnomalari asosida belgilangan. Mazkur hujjatlar pitomnik ehtiyojlari uchun ajratilgan yer uchastkalarining qonuniy tartibda rasmiylashtirilganligini hamda ularning huquqiy maqomini tasdiqlaydi. Yerdan foydalanish huquqi O‘zbekiston Respublikasi yerdan foydalanish huquqini davlat ro‘yxatiga olish kitobida 20-son bilan qayd etilgan bo‘lib, bu holat mazkur hududning davlat reyestrda mustaqil obyekt sifatida hisobga olinayotganini kafolatlaydi.

Shuningdek, hudud bo‘yicha yerdan foydalanish huquqini tasdiqlovchi hujjatlar keyingi yillarda yangilanib borilgan. Xususan, 2009-yil 18-mayda 9 369 gektar maydon uchun GKKINP (Aholi punktlari kadastr ma‘lumotlarining davlat klassifikatori) 18-025-99 kodiga ega kadastr hujjati rasmiylashtirilgan. Ushbu hujjat yerdan foydalanish huquqining kadastr ma‘lumotlari asosida davlat tomonidan tasdiqlanganligini, yer resurslari ustidan nazorat tizimi izchil olib borilayotganini hamda pitomnik faoliyatining huquqiy asoslarini yanada mustahkamlashga xizmat qilayotganini ifodalaydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirzaxo‘jaev N. O‘zbekistonda tabiiy hududlarni boshqarish masalalari. - Toshkent: «Fan» nashriyoti, 2005. - 256 b.
2. Tursunov A.K. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar va ularni joylashtirish qonunchiligi. - Toshkent: Ekosan, 2020. - 180 b.
3. Berdikulov B.B. O‘zbekistonda muhofaza etiladigan hududlar tasnifi va boshqaruv tizimi. - Samarqand: Ilm Ziya, 2022. - 210 b.
4. Rahimova L. Xalqaro konvensiyalar va O‘zbekistonda tabiiy hududlarni muhofaza qilish. - Toshkent: Adabiyot, 2014. - 236 b.
5. Jalolov H. O‘zbekiston davlat qo‘riqxonalarini tashkiliy va huquqiy asoslar. - Toshkent: Adolat, 2019. - 224 b.
6. Qodirova S. Ekoturizm va muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda yer boshqaruvi. - Samarqand: Rivoj, 2017. - 204 b.
7. Abdullayev X. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda yer maydonlari boshqaruvi. - Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2019. - 220 b.
8. Tursunov D. J. Qizil Kitobga kiritilgan turlarning muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda saqlanishi va monitoringi // Fan va hayot. - 2022. - T. 2, № 60. - B. 48-57.
9. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
10. [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)